

GLOBALLASHUV SALBIY OQIBATLARINING YOSHLAR MA'NAVIY KOMOLOTIGA TA'SIRI

*Chirchiq OTQMBYu
Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va
shaxsiy tarkib bilan ishlarni
tashkillashtirish kafedrasida o'qituvchisi
M.A. Sherov*

Avvalambor globallashuv – globalizatsiya jarayonlari va ularning mazmun-mohiyatiga qarash lozim deb o'ylayman. Chunki, ushbu jarayon jahon sivilizatsiyasi tarixida qadim davrlardan boshlab shakllangan jarayon bo'lib, yagona ilmiy tushuncha "globalizatsiya" holida o'tgan asrning ikkinchi yarmida fanga kirib keldi.

Globallashuv – globalizatsiya tushunchalariga fanda olimlar tomonidan turlicha tariflar berilsada, ularning yagona mohiyat-mazmunini dunyo hamjamiyati-ning butun jahon mamlakatlari va xalqlarining o'zaro barcha sohalaridagi yaqinlashuvini anglatadi.

Ijtimoiy axloqning shakllanishi tarbiya jarayoniga, diniy tarbiyaga ham asoslanadi. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: «Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz»[1; 44].

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ibtidoiy jamiyat davrida inson hayotiga havf soluvchi, nafaqat bitta odam hayotiga, balki butun insoniyat evolyutsiyasiga xavf soluvchi omillardan biri sifatida yashash uchun kurash va tashqi dushmanlardan, yani yovvoyi hayvonlardan himoyalaniish hisoblangan. Bu tashqi ta'sirlardan himoyalaniishning yagona omili esa, bu shak-shubhasiz o'zaro birga yashash zarurati hisoblangan. Aynan manashu omilning o'zidan ham ko'rinib turibdiki, dastlabki davrlardan boshlab birga rivojlanish omili tufayligina insoniyat evolyutsiyaga erishgan va bugungi kungi, bugungi taraqqiyotgacha etib kelgan. Shundan ham ko'rinib turibdiki, globallashuv nafaqat bugungi kunning ijtimoiy zarurati bo'lib kelgan va bo'lib qoladi.

XXI asr insoniyat tamadduniga axborot texnologiyalari va intellektual salohiyat asri sifatida kirdi. Bu asrda inson aqli va tafakkuri yordamida aql bovar qilmas darajadagi texnika va texnologiyalar yaratildi, aynan mana shu texnika va texnologiyalar yordamida hayotning barcha sohalarida yuksak natijalarga erishilmoqda.

Mazkur kashfiyotlarning biri sifatida bugungi kunda eng ommalashgan internet tarmogʻi esa yagona axborot tarqatuvchi manba sifatida bugungi kunda butun dunyo tomonidan eʼtirof etilmoqda. Guruch kurmaksiz boʻlmagani kabi, aynan mana shu manbadan ham oʻz gʻarazli maqsadi yoʻlida foydalanuvchilar chiqib turibdi.

Statistik maʼlumotlarga qaraganda bir kunda dunyo aholisi boʻyicha 3,8 milliard kishi internet tarmogʻi turli ijtimoiy saytlaridan foydalanadi. Bu esa duyo aholisining 70 foizi demakdir. Shulardan 40 foizini 28 yoshgacha boʻlgan yoshlar, 22 foizini oʻrta yoshlilar, 8 foizini esa keksalar tashkil qiladi. 28 yoshgacha boʻlgan internetdan foydalanuvchilar 60 foizi turli ijtimoiy tarmoqlardan, 30 foizi turli yangiliklar, reklama roliklari, siyosiy, ijtimoiy, liqtisodiy hayotda yuz berayotgan voqe- hodisalardan, 10 foizi esa adashib internetni tushunmasdan foydalanuvchilarni tashkil etadi. 1 daqiqada oʻrtacha hisobda internet tarmoqlariga 45 ta xabar reklama turli yangiliklar kiritiladi. Aynan mana shu vaqt mobaynida esa dunyo boʻyicha atigi 5 ta qoldirilgan xabarlar oʻchiriladi.

Endi manashu statistikaga tayangan holda bir fikr yuritib koʻraylik: bir daqiqada 45 ta xabar qoldirilsa, shulardan atigi 5 ta xabar oʻchirilsa, kuniga foydalanuvchi aholi ushbu xabarnomalarga bilib kirsas, kimdir xohlamasdan, kimdir oʻqigan narsasidan toʻgʻri xulosa chiqarsa, kimnidir esa bu yangilik umuman qiziqtirmasa, yana kimgadir bu narsa qanaqadir kuch bagʻishlaydi. Bu xabarlarning biri haqiqat boʻlsa, yana birisi esa kimgadir qilingan tuxmat, kimdandir alamini olish yoki kimgadir berilgan tekin foydasiz maslaxatlar. Aynan manashu internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan va hamma uchun urf boʻlayotgan maslaxatlar yoʻl-yoʻriqlar majmuasi "ommaviy maʼdaniyat" nomi ostida jahon sahnasi ostida paydo boʻldi.

Ommaviy ma'daniyat – dunyo ma'daniyatlarining qo'shilishi, aralashishi, milliy ma'daniyatlarning sekin astalik bilan yo'qolib borishidir. Endi bir o'ylab ko'raylikchi, milliy ma'daniyat yo'qolib, butun dunyo bitta ma'daniyatga bo'ysunsa, amal qilsa, shu ma'daniyatni keltirib chiqargan, xalq qaerda qoladi, millat qaerda qoladi? Uning ming yillik tarixichi?

Bir qarashda arzimasi, e'tibor berilmas darajada ko'ringan bu narsa vaqti kelib bitta inson yoki mahallada yohud shaxs taqdiriga va kelajagiga emas, balki butun bir millat kelajagiga, tarixiga, ildiziga urilgan bolta bo'ldi. Shunday ekan biz bu jarayonga qarshi kurashni avvalambor fuqorolarda g'oyaviy va ma'naviy imunitetni shakllantirishdan boshlashimiz lozim. Buning uchun esa birinchi navbatda oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni, ayniqsa endi turmush qurayotgan oilalar tuman FHDYO bo'limlarida ma'naviy targ'ibot markazlarini tashkil qilish kerak.

Bunday markazlar tomonidan oilalarga, bo'lajak ota-onalarga oila, uning muqaddas dargoh ekanligi, farzand tarbiyasi kelajakda jamiyatda qanday inson sifatida kirishi, bevosita ularning bugungi kunda unga ko'rsatayotgan yo'l yuriqlariga dahldor ekanligi, bu esa farzand kelajagi uchun qayg'urish ota-ona oldidagi muqaddas burch ekanligini ularga tushuntirish va mazmun-mohiyatini etkazib berish lozim. O'z tarixini avlod-ajdodi kimligini, o'zligini anglagan, milliy o'zligini anglagan, bilmagan unutmagan inson har qachon o'z tanlagan yo'lidan og'ishmay harakat qilib, vatan va xalq manfaati kelajagi uchun o'zini daxldor sezib harakat qiladi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunday degan: **«Insoniyat faqatgina ilm va yuksak axloqiylik asosida yaxlit fozil jamoaga birlasha olishi mumkin»**[2;186]. Uning ta'limoti markazida yuksak ma'naviyatli va axloqli komil insonni shakllantirish g'oyasi yotibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqaroorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent «O'zbekiston», 1997y.
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. Toshkent «Sharq», 1993y.